
Ma'naviy xavfsizlik: uni ta'minlash milliy yuksalishning bosh omilidir

Dunyo mamlakatlari, millatlar va xalqlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir doirasi shu qadar kengayib bormoqdaki, ayni paytda bundan to'la ihotalanishga muvaffaq bo'lgan davlat mavjud emas. Albatta, globallashuv jarayonlari eng yangi texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, tezkor zamonaviy kommunikatsiya va aloqa vositalari, mehnat unumdorligi uchun qulay sharoitlar va cheklanmagan imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatlarning o'zaro yaqinlashuvi, jahon iqtisodiyoti tizimiga integratsiyalashuv jarayonlarining tezlashuviga xizmat qilmoqda. Shuning uchun ham ko'plab tadqiqotchilar shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda vujudga kelayotgan ixtilof va ziddiyatlarning asl sabablarini aniqlash uchun ijtimoiy taraqqiyotning asosiy mezonlarini belgilab olish zarurligini ta'kidlamodalar.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2016 yil 18 oktyabrdagi Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqida "Biz bugun insoniyat taraqqiyotining, ta'bir joiz bo'lsa, keskin burilishlar ro'y berayotgan tarixiy bosqichida yashamoqdamiz. Keyingi yillarda Yer yuzida keskin geosiyosiy o'zgarishlar ro'y berdi, xalqaro miqyosda xavfsizlik va barqarorlik tizimi izdan chiqmoqda. Globallashuv jarayonining tobora shiddatli tus olishi nafaqat insoniyat imkoniyatlarini kengaytirmoqda, balki ziddiyatlarning keskinlashuvi, rivojlangan va qoloq davlatlar o'rtasidagi tafovutning o'sishiga olib kelmoqda. Buning oqibatida tinchlik va barqarorlikka rahna solayotgan, mohiyati va ko'lamiga ko'ra, transmilliy xususiyatga ega turli xatti-harakatlar sodir etilmoqda. Boshpanasiz qolib, o'zga yurtlarda sarson-sargardon yurgan odamlar og'ir musibatlarni boshdan kechirmoqda, qurolli qarama-qarshiliklar va terrorizm oqibatida begunoh bolalar, keksalar, xotin-qizlar halok bo'layotir. Oxiri ko'rinmaydigan urushlar tufayli ko'plab mamlakatlar vayronaga aylanmoqda", deb eng dolzarb muammolarni ko'rsatib o'tgan edilar.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo miqyosida har yili 4,5 milliondan ziyod kishi odam savdosi qurboni bo'lmoqda. Achinarlisi, ularning 1,2 milliondan ziyodi bolalardir. Odam savdosining tarqalish darajasiga ko'ra, Afg'oniston jahonda ikkinchi o'rinni egallaydi. Ushbu mamlakatlardan olib chiqilayotgan va olib kirilayotgan "jonli tovar"larning o'rtacha yoshi 10-18 yoshni tashkil etadi.

Globallashuv jarayonlarining yana bir jihati u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib ulgurganidir. Ya'ni ushbu hodisa milliy manfaatlarimiz, yuksak ma'naviyatli avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi davlat siyosatini amalga oshirishda jiddiy tahdidlardan biriga aylandi va ushbu tahdidlar kundan-kunga kuchayib bormoqda. Ma'naviy tahdidlar irqi, tili, dini, e'tiqodidan qat'iy nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga, uning aynan ruhiy olamini izdan chiqarishga qaratilgan mafkuraviy, g'oyaviy va axborot xurujlaridir. Ayni vaqtda axborot xurujlari atom qurolidan-da kuchayib bormoqda. Xabaringiz bor, keyingi paytlarda Internet orqali xavfli o'yin - "Ko'k kit" balosi tobora yopirilib kelmoqda. Bugun ushbu o'yin kirib bormagan hudud qolmadi hisob. 2016 yili ushbu o'yin tufayli Rossiyada 720 nafar, Qirg'izistonda 95, Qozog'istonda 33 nafar o'smir o'z joniga qasd qilgan. Faqat Rossiyaning "Vkontakte" ijtimoiy tarmog'ida 300 dan ortiq suiqasd guruhlari borligi ham uning xuruji tobora ortib borayotganligini anglatadi. Umuman aytganda esa dunyo miqyosida Internet orqali har xil turdagi psixologik urushlar avj olmoqda.

AQShda o'tkazilgan tadqiqotda esa yana bir qiziq holat aniqlangan. Ya'ni 7-18 yoshdagi bolalarning 80 foizi har kuni o'z elektron pochta-siga virusli fayl qabul qiladi. Kibermakonda sayr qilayotgan har beshinchi bola Internet tahdidiga bir marta bo'lsa-da uchragani, har to'rtinchisi yoshiga mos bo'lmagan axborotni olgani ham yuqoridagi fikrlar bejiz emasligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham aksariyat ekspertlar bolalar va o'smirlarning Internetdagi salbiy axborotlar oqimi hamda informatsion xurujlardan nisbatan kam himoya qilinganini ta'kidlashmoqda. Qolaversa, bolalar huquqlarini himoya qiluvchi xalqaro fond — YuNISEF tomonidan tashkil etilgan so'rovlar Internetdan foydalanadigan 90 foiz bolalar axloqsiz surat va videolarga duch kelishini, 60 foizi esa bu turdagi axborotlarni maqsadli ravishda izlaganini ko'rsatdi.

Mazkur xurujlar aniq maqsadga qaratilgan tajovuz bo'lib, ular turli xildagi siyosiy texnologiyalar asosida amalga oshirilmoqda. Ulardan biri AQShlik sotsiolog Jozef Overton tomonidan ishlab chiqilgan "Har qanday odatni hayotga singdirish" deb nomlangan siyosiy texnologiyadir. Ushbu texnologiyaga ko'ra, biror tushuncha yo hodisani ongga singdirish bir nechta bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich: Aql bovar qilmaslik — g'oya singdirilayotgan jamiyatda ommaviy tarzda taqiqlarni bekor qilishga erishish;

Ikkinchi bosqich: Qat'iyatlilik — olimlar va mutaxassislarni faol tarzda jalb etish: ochiq va rasmiy tarzda konferensiyalar, simpoziumlar uyushtirish;

Uchinchi bosqich: Ma'qullash va maqbullik — jamiyatga xos bo'lgan "gunoh" tushunchalarning mazmun-mohiyatini o'zgartirish;

To'rtinchi bosqich: Mantiqiylik — jamiyatda ilgari surilgan g'oyaga nisbatan turli qarashlarni shakllantirish. Qarshilik qilganlarni yangi g'oyalar kushandasi, eskilik sarqiti sifatida qoralash;

Beshinchi bosqich: Standart o'lchov — mazkur g'oya ommaviy axborot vositalarida faol targ'ib qilinadi. Bu jarayonga mashhur kishilar jalb etiladi. Odamlar ongiga tegishli ma'lumotlar singdiriladi;

Oltinchi bosqich: Amaldagi norma — yot g'oyalar me'yoriy hujjatlarga kiritiladi. Qachonlardir aqlga sig'maydigan voqeliklar ijtimoiy hayotning me'yorlariga aylanadi.

Ayni paytda ushbu texnologiyalardan foydalangan holda axloqsizlik, g'oyalari targ'ib etilmoqda, turli davlatlarda rangli inqiloblar uyushtirilyapti. Xususan, mazkur texnologiyalar asosida Sharqiy Yevropaning bir qator mamlakatlarida mahalliy aholi ishtirokida siyosiy rejim almashinishi bilan tugallanadigan ko'cha tartibsizliklari va ommaviy namoyishlar amalga oshirildi. Jumladan, 2003 yili Gruziyadagi Atirgullar inqilobi, 2004 yili Ukrainadagi Zarg'aldoq rang inqilobi, 2005 yili Qirg'izistondagi Lolalar inqilobi, 2008 yilda Armanistondagi rangli inqilobga urinish, 2010-2015 yillarda esa Yaqin Sharq va Ukrainadagi inqiloblar shular jumlasidandir.

Mana shunday nozik vaziyatda odamlar o'z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o'tgan hayotiy-milliy qadriyatlariga, sog'lom dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, shubhasiz ma'naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishidagi ta'siriga bardosh berishi qiyin. Shu bois ham bugun Sharq va G'arb bo'ladimi yoki olis Afrika yohud Osiyo qit'asi bo'ladimi ma'naviyatga qarshi qandaydir tahdid paydo bo'lsa, o'z kelajagini o'ylab yashaydigan har bir inson, har bir xalq tashvishga tushishi tabiiy, albatta. Hozirgi davr sivilizatsiyasi shundan dalolat beradiki, jamiyatning ma'naviy xavfsizligini ta'minlay olmay turib, istiqbolli kelajakni tasavvur qilish mumkin emas. Shu bois, jamiyatda ma'naviy xavfsizlikni ta'minlamay davlat milliy xavfsizligi, yurtimizda bugungi kunda kechayotgan ulkan islohotlarning samardorligiga erishib bo'lmaydi. Chunki ma'naviyat — insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. Jahon tajribasidan ma'lumki, ilg'or va rivojlangan davlat barpo etishning zaruriy sharti ham yuksak ma'naviyatga ega bo'lishdir.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda barpo etilayotgan adolatli demokratik huquqiy davlat va yuksak ma'naviyatli fuqarolik jamiyatini shakllantirishda ma'naviyat, ma'rifat va tarbiya masalalari davlat siyosatining asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma sakkiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" degan ustuvor g'oyaga alohida e'tibor qaratib, "Bugun O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga dadil qadam qo'ymoqda. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish, inson huquq va erkinliklarini, qonun ustuvorligini ta'minlash asosida O'zbekistonning yangi, demokratik qiyofasi yaratilmoqda. Bu borada Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" degan ustuvor g'oya biz uchun dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda", deb ta'kidladi.

Akbar EShMURADOV,

O'zMU mustaqil tadqiqotchisi

2019-10-14 09:55:50